



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
chaqiruvga qadar boshlang'ich
tayyorgarlik fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yili 11-sinf uchun
II chorak

DARS
ISHLANMALARI

2025-2026-o‘quv yili 11-sinf CHQBT fani uchun
II chorak taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Ichki xizmat nizomi, harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlari	1		
2.	Yakkaboshchilik, komandirlar va bo‘ysinuvchilar	1		
3.	Harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar	1		
4.	Vaqtning taqsimlanishi va kundalik tartib	1		
5.	Sutkalik naryat	1		
6.	Garnizon va qorovul xizmatlari Nizomi, qorovul va uning vazifalari	1		
7.	Soqchi va uning majburiyatlari	1		
8.	Nazorat ishi-3	1		
9.	Mudofaa vazirligi tizimidagi ta’lim tashkilotlari	1		
10.	Zilzilaga harakatlanish	1		
11.	Ko‘chki va suv toshqinlarida harakatlanish	1		
12.	Kuchli shamol, jalada, issiq va sovuq paytlarda harakatlanish.	1		
13.	Nazorat ishi-4	1		
14.	Transport vositalari bilan bog‘liq avariyalarda harakatlanish.	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Ichki xizmat nizomi, harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlari

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga 11-sinf CHQBT fani doirasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tuzilishi, harbiy xizmatning ahamiyati, chaqiruvga qadar tayyorgarlikning mazmuni hamda Vatan mudofaasi bilan bog'liq nazariy bilimlarni tizimli va mukammal tarzda yetkazish, ularning harbiy tayyorgarlik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarda Vatanga muhabbat va sadoqat, yuksak vatanparvarlik ruhini qaror toptirish, harbiy burch va fuqarolik mas'uliyatini chuqur anglashga o'rgatish, harbiy intizom, jasorat, fidoyilik, jamoada ishlash madaniyati hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga hurmat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, tezkorlik, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini oshirish, o'z bilimlarini amaliy mashg'ulotlarda qo'llay olish, hayotiy vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

II. FK – fanga oid kompetensiyalar

FK1 – Harbiy qonunchilik va harbiy tartibni bilish kompetensiyasi

FK2 – Askarning jangda harakatlanish va jangovar qurol-aslahalardan foydalana olish kompetensiyasi

FK3 – Jismoniy sifatlarini namoyon qila olish kompetensiyasi

FK4 – Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri va tezkor harakatlanish kompetensiyasi

FK5 – Vatanparvarlik va burchga sodiqlik kompetensiyasi

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kompetensiyasi

Milliy urf-odatlar, o'zaro muloqot, oilada ota-ona o'rni, farzand tarbiyasi va burch tushunchalariga ega bo'lish kompetensiyasi

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:

Ichki xizmat Nizomi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida (keyingi o‘rinlarda – Qurolli Kuchlar) ichki tartibni ta’minlash va bo‘linmalarda harbiy intizomni saqlashga qaratilgan ichki xizmatni tashkil etish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom Qurolli Kuchlar, harbiy xizmatni o‘tash nazarda tutilgan vazirliklar, qo‘mitalar va idoralarning (keyingi o‘rinlarda – vazirliklar) oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlaridagi harbiy xizmatchilari, harbiy ta’lim muassasalari kursant (tinglovchi)lari (keyingi o‘rinlarda – harbiy xizmatchilar), shuningdek, harbiy yig‘inlarni o‘tash

davrida va harbiy kiyimni kiyib yurish huquqi bilan harbiy xizmatdan bo‘shatilgan Qurolli Kuchlar rezervida (zaxirasida, iste’foda) turgan fuqarolarga nisbatan tatbiq etiladi. Harbiy qism (muassasa)da harbiy xizmatchilarning kundalik hayoti va faoliyati ichki xizmat talablariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatchilarning huquqlari va umumiy majburiyatlari

harbiy xizmatchi Vatanga qasamyod qabul qilgunga qadar harbiy lavozimga tayinlanishi, jangovar vazifalarni bajarishga (jangovar harakatlarda ishtirok etishga, jangovar navbatchilikka, jangovar xizmatga, qorovullik xizmatini o‘tashga) jalb etilishi mumkin emas, shuningdek, harbiy xizmatchiga qurolyarog‘, harbiy va maxsus texnika birlashtirilmaydi, unga nisbatan intizomiy ta’zir chorasini qo‘llash mumkin emas;

harbiy xizmatchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagan aybdor komandirlar (boshliqlar) amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

harbiy xizmatchilar harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish mobaynida jangovar qurolni saqlash, olib yurish, ishlatish va qo‘llash huquqiga ega.

Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari:

Vatanga qasamyodi uchun sodiq bo‘lish, o‘z xalqiga fidokorona xizmat qilish, O‘zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini mardlarcha va mohirona himoya qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya qilish, harbiy nizomlar talablarini bajarish;

o‘zining huquqiy savodxonligini oshirib borish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;

O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish bilan bog‘liq vazifalarni bajarish mobaynidagi harbiy xizmat mashaqqatlarini sabot va matonat bilan yengish;

harbiy kasbni egallash, professional ko‘nikmalari va harbiy mahoratini takomillashtirib borish, har qanday vaziyatda Vatanini, O‘zbekiston xalqining tinchligi va osoyishta hayotini himoya qilishga shay turish, davlat, harbiy va xizmat sirlarini sir saqlash; ishonib topshirilgan qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnikani bilish hamda qo‘llash uchun muntazam shay tutish, harbiy mol-mulkni asrab-avaylash; halol, intizomli, jasur va harbiy majburiyatni bajarishda oqil tashabbuskor bo‘lish;

komandirlarga (boshliqlarga) so‘zsiz bo‘ysunish va jangda ularni himoya qilish; harbiy o‘rtoqlikni qadrlash, kerak bo‘lsa, o‘z hayotini ham ayamay o‘rtoqlarini



xavf-xatardan qutqarish, soʻzi va ishi bilan ularga yordamga kelish, har birining shaʼni va qadr-qimmatini hurmat qilish, oʻziga va boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan qoʻpollik va xoʻrlanishga yoʻl qoʻymaslik, ularni nojoʻya xatti-harakatlardan saqlab qolish.

Harbiy xizmatchilarning javobgarligi qay tartibda belgilangan?

Barcha harbiy xizmatchilar oʻz harbiy unvonlari va lavozimlaridan qatʼi nazar qonun oldida tengdirlar va huquqiy holatining oʻziga xosliklarini hisobga olgan holda ularning zimmasiga Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan javobgarlik yuklatiladi.

Harbiy xizmatchilar intizomiy nojoʻya xatti-harakatlar yoki maʼmuriy huquqbuzarliklar sodir etganliklari uchun Qurolli Kuchlarning intizom Nizomida belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

Harbiy xizmatchilar sodir etgan maʼmuriy huquqbuzarliklari uchun Qurolli Kuchlarning intizom Nizomida belgilangan tartibda maʼmuriy javobgarlikka tortiladilar, maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi qonunchilik hujjatlarida umumiy tartibdagi javobgarlik nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Bunda harbiy xizmatchilarga nisbatan maʼmuriy qamoq jazosi qoʻllanishi, muddatli harbiy xizmatchilarga nisbatan esa jarima solinishi mumkin emas.

Harbiy xizmatchilar harbiy xizmat majburiyatlarini bajarayotganlarida davlatga moddiy zarar yetkazganliklari uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda moddiy javobgarlikka tortiladilar.

Harbiy xizmatchilar sodir etgan jinoyatlari uchun Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Harbiy xizmatchilar sodir etgan huquqbuzarligi uchun qoidaga koʻra, javobgarlikning bitta turiga tortiladilar.

Harbiy xizmatchilarning javobgarligi Ichki xizmat Nizomining 23–29-moddalarida qayd etilgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Ichki xizmat Nizomining mazmun-mohiyati nimaga qaratilgan?

2. Harbiy xizmatchilarning huquqlari, umumiy majburiyatlari va javobgarligi nimalardan iboratligini aytib bering.

V. Darsni yakunlash: oʻquvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish:



OʻIBDOʻ: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Yakkaboshchilik, komandirlar va bo‘ysinuvchilar

Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad:

O‘quvchilarga 11-sinf CHQBT fani doirasida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tuzilishi, harbiy xizmatning ahamiyati, chaqiruvga qadar tayyorgarlikning mazmuni hamda Vatan mudofaasi bilan bog‘liq nazariy bilimlarni tizimli va mukammal tarzda yetkazish, ularning harbiy tayyorgarlik bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad:

O‘quvchilarda Vatanga muhabbat va sadoqat, yuksak vatanparvarlik ruhini qaror toptirish, harbiy burch va fuqarolik mas’uliyatini chuqur anglashga o‘rgatish, harbiy intizom, jasorat, fidoyilik, jamoada ishlash madaniyati hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga hurmat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad:

O‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, tezkorlik, jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini oshirish, o‘z bilimlarini amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llay olish, hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

II. FK – fanga oid kompetensiyalar

FK1 – Harbiy qonunchilik va harbiy tartibni bilish kompetensiyasi

FK2 – Askarning jangda harakatlanish va jangovar qurol-aslahalardan foydalana olish kompetensiyasi

FK3 – Jismoniy sifatlarini namoyon qila olish kompetensiyasi

FK4 – Favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor harakatlanish kompetensiyasi

FK5 – Vatanparvarlik va burchga sodiqlik kompetensiyasi

Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish kompetensiyasi

Milliy urf-odatlar, o‘zaro muloqot, oilada ota-ona o‘rni, farzand tarbiyasi va burch tushunchalariga ega bo‘lish kompetensiyasi

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o‘quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:

Yakkaboshchilik – Qurolli Kuchlarning harbiy qurilishi, ularga rahbarlik qilish va harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy tamoyillaridan biri.

Yakkaboshchilik komandirga (boshliqqa) katta mas’uliyat yuklaydi. Unga bo‘ysunuvchilarga nisbatan idora etish hokimiyatining to‘la huquqi beriladi. Zimmasiga harbiy qism (muassasa) va bo‘linmalar, shuningdek, har bir harbiy xizmatchi hayoti va faoliyatining barcha jihatlarini uchun davlat oldida shaxsan javob berish mas’uliyati yuklatiladi. O‘z xizmat mavqeyidan kelib chiqqan holda ba’zi harbiy xizmatchilar boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan komandir (boshliq) yoki bo‘ysunuvchi bo‘lishlari mumkin.



Komandir (boshliq) bo‘ysunuvchiga buyruq berish va ushbu buyruq ijrosini talab qilishga haqlidir. Komandir (boshliq) bo‘ysunuvchi uchun xushmuomalalik va o‘zini idora etish borasida ibrat bo‘lishi, noxolis munosabatlarga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Bo‘ysunuvchining insoniy qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar sodir etgan komandir (boshliq) javobgarlikka tortiladi. Bo‘ysunuvchi komandirning buyruqlarini so‘zsiz bajarishga majburdir. Agar u o‘ziga nisbatan noto‘g‘ri munosabat ko‘rsatilgan deb bilsa, olingan buyruqni bajarib bo‘lgach, shikoyat qilishga haqli. O‘z xizmat mavqeyiga ko‘ra boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan komandir (boshliq) yoki bo‘ysunuvchi deb hisoblanmagan harbiy xizmatchilar bir-biriga nisbatan katta yoki kichik bo‘lishlari mumkin.

2 Kattalar va kichiklar

Katta-kichiklik harbiy xizmatchilarning harbiy unvonlari bilan belgilanadi. Harbiy unvoni kichik harbiy xizmatchilar tomonidan harbiy intizom, jamoat tartibi, yurish-turish, harbiy kiyim kiyish va harbiycha salom berish qoidalari buzilgan hollarda harbiy unvoni kattalar mazkur harbiy xizmatchilardan ushbu kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilishlari lozim. Harbiy unvoni kichiklar kattalarning bu talablarini so‘zsiz bajarishga majburlar. Bir-biriga bo‘ysunuvchi bo‘lmagan harbiy xizmatchilar majburiyatlarni birgalikda bajaradigan hollarda ularning o‘zaro xizmat munosabatlari komandir (boshliq) tomonidan belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa, ulardan lavozimiga ko‘ra kattasi, lavozimlar teng bo‘lsa harbiy unvoni bo‘yicha katta harbiy xizmatchi boshliq sanaladi.

Harbiy xizmatchi xizmatga oid masalalar bo‘yicha o‘zining bevosita komandiriga (boshlig‘iga) murojaat qilishi va uning ruxsati bilan qo‘mondonlik pog‘onasi bo‘yicha navbatdagi komandirga (boshliqqa) murojaat qilishi lozim. Harbiy xizmatchi ariza, taklif va shikoyat qilish mobaynida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan murojaat qilish tartibini belgilaydigan amaldagi qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, Qurolli

Kuchlarning intizom Nizomiga rioya qilishga majburdir. **Buyruq berish va ijro etish tartibi** Buyruq (buyruqnoma) harbiy xizmatchiga yoki bo‘linmaga og‘zaki, yozma, texnik aloqa vositalari yordamida yoki oldindan belgilangan signallar orqali yetkazilishi mumkin. Buyruq (buyruqnoma) qonunchilik hujjatlari va harbiy nizomlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Buyruq bo‘ysunish pog‘onasi bo‘yicha beriladi. Vaziyat taqozo etgan holatda katta komandir (boshliq) bo‘ysunuvchiga, uning bevosita komandirini (boshlig‘ini) chetlab o‘tgan tarzda buyruq berishi mumkin. Bunday holatda u bo‘ysunuvchining bevosita boshlig‘iga xabar beradi yoki bo‘ysunuvchining o‘zi bu haqida o‘zining bevosita komandiriga (boshlig‘iga) bildiruv berishini buyuradi.

Komandirning (boshliqning) buyrug‘i so‘zsiz, aniq va o‘z vaqtida bajarilishi shart.

Buyruq olgan harbiy xizmatchi **“Xo‘p bo‘ladi”** deb javob berib, buyruq ijrosiga kirishadi. Olingan buyruq bajarilganligi bo‘yicha harbiy xizmatchi buyruq bergan komandirga (boshliqqa) va o‘zining bevosita komandiriga (boshlig‘iga) bildiruv berishga majburdir. Harbiy xizmatchiga harbiy xizmatga aloqasi bo‘lmagan yoki qonunni buzishga yo‘naltirilgan buyruq va vazifalar berilishi mumkin emas.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:


1 Yakkaboshchilik deganda nimani tushunasiz?

2 Boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar degan tushunchalarni izohlab bering.

3 Buyruq nima? Komandirning buyrug‘ini bo‘ysunuvchi qanday qabul qilishi kerak?

V. **Darsni yakunlash:** o‘quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:



O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

41 listdan iborat CHQBT fanidan 11-sinf II chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**